



THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENTS IN IMPROVING THE EFFECTIVENESS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN

Pirnafas Kholikulov

Associate Professor

University of Economics and Pedagogy

Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: foreign investment, higher education, education quality, efficiency, modernization.

Received: 24.02.26

Accepted: 25.02.26

Published: 26.02.26

Abstract: This article analyzes the role of foreign investments in improving the quality of education in higher education institutions in the Republic of Uzbekistan based on the IMRAD model. It is emphasized that foreign investments serve to improve the quality of education, develop scientific and innovative projects, and strengthen the position of universities in international rankings. The importance of using international experience, transparent distribution of investments, and financing scientific research in assessing the impact of investments on the education system is shown.

O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSİYALARNING ROLI

Pirnafas Xolikulov

Iqtisodiyot va pedagogika universiteti dotsenti

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: xorijiy investitsiya, oliy ta'lim, ta'lim sifati, samaradorlik, modernizatsiya, xalqaro hamkorlik.

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati samaradorligini oshirishda xorijiy investitsiyalarning tutgan o'rni IMRAD modeli asosida tahlil qilinadi. Xorijiy investitsiyalar ta'lim sifatini oshirish, ilmiy-innovatsion loyihalarni rivojlantirish hamda universitetlarning xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlashga xizmat

qilishi ta'kidlangan. Investitsiyalarning ta'lim tizimiga ta'sirini baholashda xalqaro tajribadan foydalanish, investitsiyalarni shaffof taqsimlash va ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish muhimligi ko'rsatib berilgan.

РОЛЬ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ УЗБЕКИСТАНА

Пирнафас Холикулов

*Доцент Университета экономики и педагогики
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: иностранные инвестиции, высшее образование, качество образования, эффективность, модернизация.

Аннотация: В данной статье на основе модели ИМРАД анализируется роль иностранных инвестиций в повышении качества образования в высших учебных заведениях Республики Узбекистан. Подчеркивается, что иностранные инвестиции способствуют улучшению качества образования, развитию научно-исследовательских и инновационных проектов, а также укреплению позиций университетов в международных рейтингах. Показана важность использования международного опыта, прозрачного распределения инвестиций и финансирования научных исследований при оценке влияния инвестиций на систему образования.

Kirish. Oliy ta'lim tizimi mamlakatning ilmiy va iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Shu sababli, dunyoning rivojlangan davlatlari oliy ta'limni modernizatsiya qilish, innovatsion ta'lim dasturlarini joriy etish va xalqaro investitsiyalarni jalb qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston ham mustaqillik yillaridan boshlab oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va uni xalqaro standartlarga moslashtirishga intilmoqda. Bunda xorijiy investitsiyalar muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bois, oliy ta'lim tizimida xorijiy investitsiyalar samaradorligini baholash va uni takomillashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi [1].

Muhoka va natijalar. Mazkur tadqiqot metodologik jihatdan kompleks yondashuv asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida bir nechta o'zaro bog'liq ilmiy usullardan foydalanildi. Avvalo, 2017-2024 yillar oralig'idagi rasmiy statistik ma'lumotlar asosida miqdoriy

ko'rsatkichlar dinamikasini aniqlash maqsadida statistik tahlil usuli qo'llanildi. Ushbu yondashuv orqali oliy ta'lim tizimida investitsiya hajmi, qamrov darajasi, ilmiy faoliyat natijalari hamda institutsional o'sish ko'rsatkichlari o'rganildi.

Empirik ma'lumotlar bazasi sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining yillik hisobotlari hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan e'lon qilingan rasmiy statistik ma'lumotlar asos qilib olindi. Mazkur manbalar tadqiqot natijalarining ishonchliligi va ilmiy asoslanganligini ta'minlashga xizmat qildi.

Demak, rasmiy statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, 2016 yilda respublikada atigi 77 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024/2025 o'quv yiliga kelib ularning umumiy soni 222 taga yetgan [2]. Ushbu ko'rsatkichning keskin oshishi tizimda institutsional kengayish jarayoni yuz berganini anglatadi. Jumladan, mazkur 222 ta OTMning 99 tasi nodavlat shaklidagi (xususiy hamda xorijiy kapital ishtirokidagi) ta'lim muassasalaridir [2]. Shuningdek, oliy ta'lim bilan qamrov darajasi 2016 yildagi 9 foizdan 2024 yilga kelib 47,7 foizga yetgani ta'lim sohasida miqyosli strukturaviy o'zgarishlar amalga oshirilganini tasdiqlaydi [2].

Xususan, bunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida bir qator omillar e'tiborga olinishi lozim. Avvalo, mamlakatning oliy ta'lim sohasidagi investitsion jozibadorligi muhim rol o'ynaydi. Bu borada ta'lim muassasalarining reytingi, akademik muhit, ilmiy tadqiqot infratuzilmasi va xalqaro hamkorlik imkoniyatlari asosiy ko'rsatkichlar hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalar samaradorligini ta'minlash uchun, avvalo, aniq va shaffof qonunchilik bazasi yaratilishi, xorijiy investorlar uchun qulay ishbilarmonlik muhiti shakllantirilishi zarur. Buning uchun davlat tomonidan tegishli imtiyozlar va grantlar taqdim etilishi, soliqqa tortish shartlari yengillashtirilishi mumkin. Xususan, Westminster International University in Tashkent, INHA University in Tashkent hamda Turin Polytechnic University in Tashkent kabi ta'lim muassasalari xalqaro hamkorlik va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar asosida faoliyat yuritmoqda.

2023 yil yakuniy ko'rsatkichlariga ko'ra, respublika oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi 150 million AQSh dollaridan ortiqni tashkil etgan [2]. Xorijiy investitsiyalarni samarali boshqarish va natijalarini baholash uchun maxsus tizimlar ishlab chiqilishi lozim. Bu tizimlar yordamida investitsiyalarning ta'lim sifati va innovatsion faoliyatga ta'siri doimiy ravishda monitoring qilib boriladi. Zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari asosida investitsiyalar ta'sirini aniqlash imkonini beruvchi baholash mezonlari ishlab chiqilishi kerak. Masalan, investitsiyalar jalb qilingan oliy ta'lim muassasasida o'quv dasturlarining yangilanish darajasi, ilmiy maqolalar soni, xalqaro grantlar va loyihalar ko'lami hamda

bitiruvchilarning ishga joylashish ko'rsatkichi kabi mezonlar asosida baholash amalga oshirilishi mumkin.

Ma'lumotlarga ko'ra, 2018 yilda Scopus va Web of Science platformalarida ro'yxatdan o'tgan maqolalar soni 1 200 atrofida bo'lgan bo'lsa, 2023 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 5 000 dan ortiqni tashkil etgan [3]. Bunday o'sish ilmiy tadqiqotlar hajmining kengaygani, akademik faollikning ortgani hamda xalqaro hamkorlikning mustahkamlanganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, maqolalarning iqtiboslik darajasi ham oshib borayotgani milliy ilmiy maktablarning xalqaro ilmiy hamjamiyatdagi mavqeini mustahkamlashga xizmat qilmoqda [3].

2023 yil yakunlariga ko'ra, bir qator O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari QS Asia reytingida e'tirof etildi [4]. Ko'plab rivojlangan davlatlar, xususan AQSh, Buyuk Britaniya va Germaniya tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, xorijiy mutaxassislarning ta'lim jarayoniga jalb etilishi oliy ta'lim sifatini oshirishga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. O'zbekistonda ham xorijiy investorlarning ta'lim sohasiga qiziqishini oshirish maqsadida ular uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilishi va manfaatli hamkorlik shartlari taklif etilishi lozim.

Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi oliy ta'lim muassasalarida tayyorlangan bitiruvchilarning mehnat bozorida integratsiyasi ham yuqori darajada ekanligi kuzatilmoqda. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, mazkur OTMLar bitiruvchilarining bandlik darajasi o'rtacha 85–90 foizni tashkil etmoqda [2]. Natijada, xorijiy investitsiyali OTMLar bitiruvchilari milliy va xalqaro mehnat bozorida yuqori raqobatbardoshlikka ega bo'lmoqda [2].

Investitsiyalar samaradorligini baholashning muhim yo'nalishlaridan biri bu – oliy ta'lim muassasalarining xalqaro reytinglardagi o'rnidir. O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari Times Higher Education, QS World University Rankings va boshqa xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashga intilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy investitsiyalar ta'sirida universitetlarning reytingi qanday o'zgarayotgani va bu o'zgarishlarning sifat jihatdan qanday natijalarga olib kelayotgani o'rganilishi lozim.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalarning samaradorligini oshirish uchun ularni aniq va shaffof mexanizmlar asosida taqsimlash ham muhimdir. Investitsiyalar faqatgina infratuzilmani yaxshilashga emas, balki ilmiy-innovatsion loyihalarni moliyalashtirishga, yosh olimlarni qo'llab-quvvatlashga va ilg'or texnologiyalarni joriy etishga yo'naltirilishi lozim. Shundagina xorijiy investitsiyalar ta'lim tizimi rivojiga haqiqiy hissa qo'sha oladi.

Oliy ta'lim tizimidagi investitsiyalar natijasida yaratilayotgan innovatsion muhit va yangi ta'lim dasturlari iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Xususan, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy tadqiqotlar va startup loyihalar rivojlanib, ular natijasida iqtisodiyotning

turli sohalarida yangi texnologiyalar paydo bo'ladi. Natijada esa mamlakatga intellektual salohiyat va texnologik mustaqillikni oshirish imkoniyati yaratiladi [1].

Shu bilan birga, investitsiya oqimining uzoq muddatli barqarorligini ta'minlash, ta'lim sifati ustidan nazorat mexanizmlarini takomillashtirish hamda milliy va xalqaro akkreditatsiya tizimlarini kuchaytirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur yo'nalishlarda izchil institutsional choralar ko'rilishi xorijiy investitsiyalarning samaradorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. O'zbekistonda oliy ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayoni jadallashib bormoqda va uning samaradorligini oshirish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Xorijiy investitsiyalarni baholash va boshqarishning samarali mexanizmlarini yaratish orqali oliy ta'lim tizimini rivojlantirish, xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallash va mamlakatning ilmiy-innovatsion salohiyatini oshirish mumkin. Shu bois, davlat siyosatida xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va ulardan unumli foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Oliy ta'lim tizimining globallasuvi sharoitida investitsiyalarni to'g'ri yo'naltirish va natijalarini chuqur tahlil qilish nafaqat ta'lim sohasini, balki umuman mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. U. Alimardonov. Oliy ta'lim tizimiga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish mexanizmlarini takomillashtirish. 2025. // Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 3(3), 235-237.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi rasmiy ma'lumotlari, 2024.
3. Scopus ilmiy bazasi statistikasi, 2023.
4. QS World University Rankings Asia Ranking 2023 hisobotlari.
5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi yillik hisobotlari, 2023–2024.